



IJTIMOIIY-GUMANITAR SOHADA ILMIIY-INNOVATION TADQIQOTLAR

ILMIY METODIK JURNALI

ISSN 3060-5059



VOL.3 № 4

2026

O‘ZBEK TILIDAGI SO‘ROQ OLMOSHLARI VA SO‘ROQ YUKLAMALARINING INGLIZ TILIDAGISI BILAN QIYOSI

Raxmatova Gulnoza Isoxonovna

Samarqand davlat chet tillar instituti, mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalarining grammatik xususiyatlari hamda ularning ingliz tilidagi ekvivalentlari qiyosiy jihatdan tahlil qilinadi. Tadqiqot jarayonida o‘zbek tilida qo‘llaniladigan “kim”, “nima”, “qachon”, “qayer”, “nega”, “qanday” kabi so‘roq olmoshlari hamda “-mi”, “-chi”, “-a” kabi so‘roq yuklamalarining vazifalari o‘rganiladi. Shuningdek, ingliz tilidagi “who”, “what”, “when”, “where”, “why”, “how” kabi so‘roq so‘zlari bilan ularning grammatik va semantik jihatdan o‘xshash va farqli tomonlari yoritiladi. Tadqiqot natijasida ikki til o‘rtasidagi so‘roq shakllarining tuzilishi, qo‘llanishi va ma’no ifodalashidagi umumiyliklar hamda farqlar aniqlanadi.

Kalit so‘zlar: So‘roq olmoshlari, so‘roq yuklamalari, qiyosiy tahlil, o‘zbek va ingliz tili grammatikasi so‘roq gaplar.

СРАВНЕНИЕ ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ МЕСТОИМЕНИЙ И ВОПРОСИТЕЛЬНЫХ ЧАСТИЦ В УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ

Рахматова Гульноза Исохоновна

Самаркандский государственный институт иностранных языков, независимый
исследователь

Аннотация

В данной статье рассматриваются грамматические особенности вопросительных местоимений и вопросительных частиц в узбекском языке, а также проводится их сравнительный анализ с соответствующими единицами английского языка. В ходе исследования анализируются такие вопросительные местоимения узбекского языка, как “kim”, “nima”, “qachon”, “qayer”, “nega”, “qanday”, а также вопросительные частицы “-mi”, “-chi”, “-a”. Кроме того, выявляются сходства и различия в их грамматическом и семантическом употреблении по сравнению с английскими вопросительными словами “who”, “what”, “when”, “where”, “why”, “how”. Результаты исследования позволяют определить общие и отличительные особенности построения и употребления вопросительных конструкций в двух языках.

Ключевые слова: вопросительные местоимения, вопросительные частицы, сравнительный анализ, грамматика узбекского и английского языков, вопросительные предложения.

A COMPARISON OF INTERROGATIVE PRONOUNS AND QUESTION PARTICLES IN UZBEK AND ENGLISH

Rakhmatova Gulnoza Isokhonovna

Samarkand State Institute of Foreign Languages, Independent Researcher

Abstract

This article analyzes the grammatical features of interrogative pronouns and interrogative particles in the Uzbek language and compares them with their equivalents in the English language.

The study examines Uzbek interrogative pronouns such as “kim”, “nima”, “qachon”, “qayer”, “nega”, and “qanday”, as well as interrogative particles like “-mi”, “-chi”, and “-a”. It also highlights the similarities and differences between these forms and English interrogative words such as “who”, “what”, “when”, “where”, “why”, and “how”. The results of the study reveal both common and distinctive features in the structure, usage, and meaning of interrogative constructions in the two languages.

Keywords: interrogative pronouns, interrogative particles, comparative analysis, Uzbek and English grammar, interrogative sentences.

Har qanday tilda so‘roq gaplar axborot olish, aniqlashtirish va muloqotni davom ettirishda muhim vosita hisoblanadi. So‘roq ma‘nosi grammatik va leksik vositalar orqali ifodalanadi. O‘zbek va ingliz tillarida so‘roq ma‘nosini ifodalashda o‘xshash jihatlar mavjud bo‘lsa-da, ularning tuzilishi va qo‘llanishida sezilarli farqlar ham kuzatiladi. Ushbu maqolada o‘zbek tilidagi so‘roq olmoshlari va so‘roq yuklamalari ingliz tilidagi mos birliklar bilan qiyosiy tahlil qilinadi.

So‘roq yuklamalari yordamida hosil qilingan gaplarning javobi har doim ham tasdiq yoki inkor shaklida bo‘lavermaydi. Bu munosabat bilan “**O‘zbek tili stilistikasi**” kitobi mualliflari quyidagilarni yozadilar: “*So‘roq yuklamalari orqali hosil qilingan so‘roq gaplarning javobi hamma vaqt ham tasdiq yoki inkor (ha, yo‘q) formalarida bo‘lavermaydi. Ba‘zan javobda ha, yo‘q so‘zlarini qo‘llab bo‘lmaydi: Umuman, ular bilishi kerakmi-yo‘qmi? (O‘. U.) Bu nima? O‘ngimmi yoki tushimmi? (P. T.) O‘qiysanmi yoki ishlaysanmi? Yana dam olasanmi yo bo‘ldimi? Ba‘zan suhbatdosh tasdiqlash yoki inkor qilish o‘rniga so‘roq beradi. Bu tip gaplar javob-so‘roq gap hisoblanadi*” [6].

O‘zbek va ingliz tillarida so‘roq olmoshlari noma‘lum shaxs, predmet, belgi, miqdor yoki sabab haqida ma‘lumot so‘rash uchun qo‘llanadi. Asosiy so‘roq olmoshlari quyidagilar: **kim — who, nima — what, qaysi — which, qanday — how, qancha — how many / how much, nechta — how many, qachon — when, qayer — where, nega / nima uchun — why.**

Asosiy qism

So‘roq olmoshlarining grammatik xususiyatlari har ikki tilda ham o‘xshash va o‘ziga xos jihatlariga ega. O‘zbek tilida so‘roq olmoshlari kelishik qo‘shimchalarini qabul qilsa, ingliz tilida kelishik kategoriyasi cheklangan bo‘lib, uning vazifasini ko‘pincha predloglar bajaradi. Masalan:

Kimni kutmoqdasiz? → Who are you waiting for?

Bu yerda **-ni** qo‘shimchasi ingliz tilida **for** predlogi orqali ifodalanadi.

Kitobni qayerga qo‘ydingiz? → Where did you put the book?

Bu jumlada o‘zbek tilidagi yo‘nalish ma‘nosi ingliz tilida sintaktik tuzilma orqali ifodalanadi.

Gapda so‘roq olmoshlari o‘zbek va ingliz tillarida ega, to‘ldiruvchi va hol vazifalarida kelib, turli sintaktik vazifalarni bajaradi:

Ega:

Kim kelmoqda? → **Who is coming?**

To‘ldiruvchi:

Kimni ko‘rdingiz? → **Whom did you see?**

Hol:

Qachon uchrashamiz? → **When will we meet?**

Qayerda stansiya? → **Where is the station?**

Ingliz tilida so‘roq olmoshlari, odatda, gap boshida keladi va ko‘pincha yordamchi fe‘llar ishtirokida qo‘llanadi. Masalan:

Who came? → Kim keldi?

What did you buy? → Nima sotib oldingiz?

Sen qayerda yashaysan? → Where do you live?

Bu yerda ingliz tilida **do** yordamchi fe'li ishlatiladi, o'zbek tilida esa bunday vosita mavjud emas.

So'roq olmoshlari har ikki tilda o'ziga xos jihatlarga ega bo'lishiga qaramay, ular o'rtasida muayyan o'xshashliklar ham mavjud. Har ikkala tilda ham so'roq olmoshlari noma'lum ma'lumotni aniqlash uchun xizmat qiladi. Masalan, **kim — who, nima — what, qayer — where** kabi to'g'ridan to'g'ri mosliklar mavjud.

O'zbek tilida so'roq yuklamalari gapga so'roq yoki gumon ma'nosini yuklaydi. **-mi (-mu), -a, -ya, -da, -ku, nahotki, xo'sh** kabi birliklar yordamida tuziladigan so'roq gaplar o'zbek tilida ko'pincha tasdiqni tekshirish, hayrat, gumon yoki ta'kid ma'nolarini beradi. Ingliz tilida bular, odatda, **tag questions, yes/no questions, intonation, elliptical questions, really, is it?, don't you?** kabi vositalar bilan ifodalanadi.

Quyidagi misollar vositasida ushbu yuklamalar har ikki tilda qanday berilishini ko'rib chiqamiz:

Ey shayx, sizda shu narsa zohir bo'lganmi? O'zingizda buni tekshirib ko'rganmisiz? [3]

→ *“O Sheikh, have you experienced this yourself? Have you tested it within yourself?” he asked.*

Bu yerda ma'no **yes/no questions** yordamida ifodalangan.

Bunday tipdagi so'roq gaplarda **-mi** yuklamasining qo'llanishi ayrim xususiyatlarga ega: bu yuklamani olgan bo'lak doim ham mazmun jihatidan asosiy so'roq obyektini anglatavermaydi. Ba'zan so'roq boshqa elementda bo'lib, bu narsa mantiqiy urg'u orqali bildiriladi [9].

Ey, mening bu so'zimdin hayron va diltang bo'ldingmu? [1]

→ *“Oh, did my words surprise and upset you?”*

Bu yerda so'roq ma'nosi intonatsiya va yordamchi fe'l orqali ifodalangan.

Avvallari bunaqa tabassum qilmas eding-ku? [2]

→ *You did not use to smile like that before, did you?*

Bu misolda **tag question** qo'llangan.

Salom berib, sekingina poygakda cho'kka tushib o'tirdim.

— **Xo'sh?!**

— **Shunday o'zim, sizni sog'inib, bir ko'rib kelay, deb kelgan edim.** [4]

→ *After greeting him, I quietly knelt by the doorway.*

— **Well?!**

— *I just came because I missed you and wanted to see you.*

Bu yerda **elliptical question** qo'llangan.

Iyya?! — dedi boy [4].

→ *Really?! said the rich man.*

Bu misolda **really** yordamida hayrat ma'nosi ifodalangan.

Yettita qo'yga ikkalamiz ikki xil xizmat qilsak ham qutula olmaymiz-ku? [4]

→ *Even if both of us work hard looking after the seven sheep, we still can't cope with them, can we?*

Bu yerda **tag question** vositasi ishlatilgan.

Sen kelasan-a?

→ *You are coming, aren't you?*

-da yuklamasi ko'pincha ta'kid va tasdiq kutish ma'nosini ifodalaydi. Masalan:

Sen buni bilasan-da?

→ *You know this, don't you?*

U keladi-da?

→ *He will come, won't he?*

Bu oson-da?

→ *It's easy, isn't it?*

Nahotki, odamlar shunchalik tez bir-birini unutsa? [5]

→ *Can it really be that people forget each other so quickly?*

Bu yerda **nahotki** yuklamasi ingliz tilida **can it really be that** kabi modal-pragmatik vositalar yordamida ifodalangan. Ingliz tilida **nahotki** soʻroq yuklamasini ifodalash uchun koʻpincha **really, can it be, is it possible** kabi iboralar ishlatiladi. Tarjima jarayonida **nahot(ki)** ning maʼnosi ingliz tilida toʻgʻridan toʻgʻri grammatik ekvivalent orqali emas, balki modal-pragmatik ekvivalentlar orqali beriladi. Bu esa ikki til tizimida soʻroq va modallikni ifodalash vositalarining turlicha ekanligini koʻrsatadi: oʻzbek tilida bu vazifa koʻpincha yuklama orqali bajarilsa, ingliz tilida esa modal soʻzlar, yordamchi feʼllar va intonatsiya orqali ifodalanadi [10].

Xulosa

Qiyosiy tahlil shuni koʻrsatadiki, oʻzbek va ingliz tillarida soʻroq maʼnosini ifodalashda umumiy funksional oʻxshashlik mavjud boʻlsa-da, grammatik mexanizmlar turlicha. Oʻzbek tilida soʻroq olmoshlari kelishik qoʻshimchalarini qabul qilishi va soʻz tartibining nisbatan erkinligi bilan ajralib turadi. Ingliz tilida esa qatʼiy soʻz tartibi va yordamchi feʼllarning ishtiroki muhim ahamiyatga ega. Soʻroq yuklamalari masalasida esa oʻzbek tilidagi **-mi (-mu), -a, -ya, -da, -ku, nahotki, xoʻsh** kabi birliklar ingliz tilida toʻgʻridan toʻgʻri ekvivalentga ega emas. Ular ingliz tilida yordamchi feʼllar, oʻrmini bosuvchi soʻzlar, **tag questions, yes/no questions** va inversiya kabi vositalar orqali ifodalanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR ROʻYXATI

1. Kaykovus.Qobusnoma / nashrga tayyorlovchilar S. Dolimov, U. Dolimov. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 240 b.
2. Dostoyevskiy F.Xoʻrlanganlar va haqoratlanganlar: roman / ruschadan H. Ziyoxonova tarjimasini. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 560 b.
3. Umarov Sh.Imom Buxoriy taʼrifi. – Samarqand: Imom Buxoriy xalqaro ilmiy-tadqiqot markazi, 2024. – 200 b.
4. Gʻafur Gʻulom.Shum bola: qissa. – Toshkent: Yangi nashr, 2019. – 144 b.
5. Hoshimov Oʻ.Ikki eshik orasi. – Toshkent: Gʻafur Gʻulom nomidagi Adabiyot va sanʼat nashriyoti, 1986. – 214 b.
6. Yoqubova Y. A.Badiiy matnda soʻroq gaplar lingvopoetikasi // Oriental Renaissance: Innovative, Educational, Natural and Social Sciences. – 2022. – T. 2, № 7. – C. 239–245.
7. Shomaqsudov A., Rasulov I., Qoʻngʻurov R., Rustamov H.Oʻzbek tili stilistikasi. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1983.
8. Oʻzbek tili grammatikasi.II tom. Sintaksis. – Toshkent: Oʻzbekiston SSR Fan nashriyoti, 1976. – 560 b.
9. Gʻulomov A., Asqarova M. A.Hozirgi oʻzbek adabiy tili. Sintaksis: darslik. – 2-nashr, qayta ishlangan va toʻldirilgan. – Toshkent: Oʻqituvchi, 1965. – 315 b.
10. Rasulova X., Mirzayeva F.Simple interrogative sentences: sodda soʻroq gap // Academic Research in Educational Sciences. – 2025. – T. 6, № NUU Conference Students 1. – C. 480–484.